

# **GLOBALLASHUV SHAROITIDA TALABALARNING EKOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI**

**Tursunova Gulbahor Sharofovna**

**Guliston Davlat Universiteti**

**“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi doktoranti**

**1992gulika@gmail.com**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20503711>

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda talabalarning ekologik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tamoyillari, ekologik ta’limning mazmun-mohiyati hamda innovatsion ta’lim klasteri sharoitida ekologik bilim, ko’nikma va malakalarni shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, ekologik ong, ekologik tafakkur va ekologik tarbiyaning uzviy bog’liqligi tahlil qilinib, ta’lim tizimida ekologik madaniyatni rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlari asoslab berilgan. Tezisda ekologik ta’limning jamiyat va tabiat o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni uyg’unlashtirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so’zlar:** ekologik ta’lim, ekologik madaniyat, ekologik ong, ekologik tafakkur, ekologik tarbiya, innovatsion ta’lim klasteri, ijtimoiy buyurtma, ekologik kompetensiya, barqaror rivojlanish, ekologik savodxonlik.

Ekologik ta’lim muammolari xalqaro hamjamiyatning diqqat markazida turadi. YuNESKO ta’lim tarmog’ini yaratishni ekologik muammolarni hal qilishning strategik yo’nalishi sifatida qaraydi, bu maktabgacha ta’lim muassasalaridan tortib to oliy ta’lim muassasalarigacha, bo’lgan barcha o’quv dasturlari markazida ekologik muammolarni shakllantirish, o’qituvchilar va ma’muriy xodimlarni tayyorlashni nazarda tutadi. Uzluksiz ekologik ta’limning asosiy tushunchasi jamoatchilikning ekologik ongini mustahkamlash bo’yicha YuNESKO-YuNEP hukumatlararo konferensiya materiallari dastlab 1977 yilda Tbilisida o’tkazilgan konferensiya materiallarida bayon etilgan.

2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha [Harakatlar strategiyasida](#) belgilangan vazifalarni so’zsiz amalga oshirish, respublika hududlaridagi ekologik muammolar yechimiga ta’lim tizimini joriy qilish bilan hissa qo’shish, o’sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ongi va ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, ekologik ta’lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining **“O’zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”**gi 2019 yil 27 may 434-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur konsepsiya va tadbirlar rejasini amalga oshirish doirasida quyidagilar ustuvor yo’nalish sifatida belgilab berilgan:

- «[Ta’lim to’g’risida](#)»gi va «[Tabiatni muhofaza qilish to’g’risida](#)»gi O’zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq uzluksiz ta’lim tizimida ekologik ta’limni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga izchillik bilan bosqichma-bosqich tadbir qilish va shu asosda ekologik ta’limning samaradorligini yangi bosqichga ko’tarish;

- ta’lim dasturlarini mavjud ekologik muammolar va ularni bartaraf etish vazifalaridan kelib chiqib takomillashtirish;

- ta’lim oluvchilarning e’tiborini umumbashariy ekologik muammolarga qaratish orqali ularning ona tabiatning qayta tiklanmaydigan manbalarini saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanish borasidagi mas’uliyatini kuchaytirish;

- ekologik ta’limning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish;

-ekologik ta'lim sifatini, kadrlar tayyorlash tizimi samaradorligini hamda barqaror rivojlanish kafolatlarini va ustuvorligini ta'minlovchi normativ-huquqiy, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

-ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatli davlat organlari va ta'lim sohasining o'zaro manfaatli hamkorligini rivojlantirish.

Mazkur konsepsiyada "ekologik ta'lim" ta'lim tizimining barcha bosqichlari va turlarini to'liq qamrab olishga yo'naltirilganligi jihatidan, innovatsion ta'lim klasteri asosida talabalarning ekologik madaniyatini oshirish mavzusidagi tadqiqotimizga ijtimoiy buyurtma sifatida qabul qilinadi.


Har bir ijtimoiy buyurtma iste'molchisi zarur bo'lgan vaqtdan boshlab o'z buyurtmasiga ta'sir o'tkaza boshlashi uning ta'lim olishdagi faoliyati davomida ma'qul bo'ladigan, ixtisoslashgan variativ o'quv reja va dasturlar, ta'lim xizmatlarini joriy etib borishi va o'z navbatida, ularni rag'batlantirib borishi ijtimoiy buyurtmaning iste'molchi talabiga muvofiq tayyorlanishini ta'minlaydi. Demak, ijtimoiy buyurtma innovatsion ta'lim klasterini yaratish va rivojlantirishning asosidir.

Ta'lim klasterida ijtimoiy buyurtma ijtimoiy ongning o'ziga xos xususiyatlari va hayotning turli sohalarida insonlar o'rtasidagi kommunikativ munosabatlarni takomillashtirish asosidagi davlat talablarini bajarishga qaratilgan.

Innovatsion ta'lim klasteri sharoitida "60110900 Biologiya" ta'lim yo'nalishi talabalarning ekologik bilim, ko'nikma va malakalari asosida ekologik madaniyatini shakllantirish bitiruvchilarni innovatsion kasbiy faoliyatga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydigan ijtimoiy buyurtma talablarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan differensial ta'lim klasterining universal vositasi bo'lishi kerak.

Ta'lim klasterining ijtimoiy buyurtmasi jamiyat kontekstida ta'lim, fan va ishlab chiqarish sub'ektlarining vertikal va gorizontaal teskari qayta aloqasiga asoslangan o'zaro ta'sir ko'rsatish imkoniyatini beruvchi talab va takliflar majmuidir. Bunda ijtimoiy buyurtma zanjiri uzviylik, uzluksizlik, izchillik tamoyillari asosida muvofiqlashganligi, bu zanjirning tizimli ishlashi natijasida jamiyatning iqtisodiy o'sishi va ijtimoiy rivojlanishi ta'minlanishi asoslab o'tilgan. Ta'lim klasteridagi ijtimoiy buyurtma masalasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ta'lim turlari o'rtasidagi o'zaro bog'liq integratsiyaning umumiy maqsadi jamiyat talablariga javob beradigan shaxsni ta'minlash hisoblanadi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan ekologik ta'limning mohiyatini tushunishimizning muhim jihati - bu u tabiat va jamiyatning o'zaro ta'sir sohasini shakllantirish yagona yaxlit tizim bo'lib, unda uchta bosqichni ajratib ko'rsatish mumkin: mahalliy o'zaro ta'sir (tabiiy iqtisodiyot rivojlanadi), mintaqaviy o'zaro ta'sir (ishlab chiqarish-texnologik majmualarning rivojlanishi bilan bog'liq), yagona integral tizimga o'tuvchi, vaqt va makonda yopiq bosqichlarni ajratib ko'rsatadi. Bugungi kunda insoniyat oldida tabiat va jamiyatning o'zaro ta'sir jarayonini boshqarish, oliy va azaliy qadriyatlarga yo'naltirish vazifasi turibdi. Mahalliy va xorijiy adabiyotlarni tahlil qilib, biz ekologik ta'limning asosiy tarkibiy qismlarini ajratib oldik va ularni quyidagi sxema shaklida taqdim etishga muvaffaq bo'ldik (1-rasm).



### 1-rasm. Ekologik ta'limning asosiy tarkibiy qismlari

Xulosa qilib aytganda, talabalarining ekologik madaniyatini rivojlantirish bugungi globallashuv va ekologik muammolar kuchayib borayotgan davrda ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ekologik ta'lim orqali yoshlarda tabiatga ongli munosabat, ekologik mas'uliyat, ekologik tafakkur hamda ekologik ongni shakllantirish mumkin. Shu jihatdan ekologik ta'lim va tarbiya jarayonini uzluksiz hamda tizimli tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan ta'limiy yondashuvlar talabalarining kasbiy va ijtimoiy faoliyatida ekologik kompetensiyalarni shakllantirishga, jamiyat va tabiat o'rtasidagi muvozanatni saqlashga hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

### Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abduazimova Z.A. Globallashuv jarayonida ekologik axloqni shakllantirishga konseptual yondashuv // f.f.f.d. (PhD) diss. avtoreferati. – T.: 2021. – 62 b.
2. Abdunazarov L.M. Ekologik ta'lim va tarbiyaning nazariy asoslarini takomillashtirish // p.f.f.d. (PhD) diss. avtoreferati. – T.: 2022. – 60 b.
3. Adilov Z.Yu. Diniy manbalarda ekologik muammolarning yechimi // f.f.f.d. (PhD) diss. avtoreferati. – Samarqand: 2020. – 52 b.
4. Aydarov E.B. O'quvchi yoshlarga tabiiy hududlarni muhofaza qilish orqali ekologik tarbiya berish texnologiyalarini takomillashtirish // p.f.f.d. (PhD) diss. avtoreferati. – Chirchiq: 2021. – 48 b.
5. G'ulomov A.B. Jadid mutafakkirlarining ekologik madaniyatga doir qarashlari: tarixiy-falsafiy tahlil // f.f.d. (PhD) diss. – Buxoro: 2021. – 127 b.